O‘ZBEKISTONDA KO'RISH BO‘YICHA NOGIRONLIGI BO‘LGAN TALABALAR TA’LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Akramov Abdurahmon Xaydarali o‘g‘li
Mustaqil tadqiqotchi
akramovabdurrahmon@gmail.com

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan talabalar, oliy ta'lim, inklyuziv ta'lim, O'zbekiston, me'yoriy-huquqiy asos.*

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan izchil davlat siyosati shakllanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida inklyuziv ta'lim muhitini yaratish vazifasi belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining O'RQ-641-son Qonuniga muvofiq nogironligi bo'lgan shaxslar uchun oliy ta'lim muassasalariga qabulda qo'shimcha kvota joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-avgustdagi PQ-292-son Qarori bu boradagi eng dolzarb hujjat bo'lib, unga muvofiq 2027-yildan boshlab alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni zamonaviy assistiv jihozlar bilan vaucher asosida ta'minlash tizimi joriy etiladi, shuningdek nogironligi bo'lgan abituriyentlarga oliy ta'lim tashkilotlariga kirish imtihonlarida qo'shimcha vaqt va moslashtirilgan (Brayl, audio, elektron) imtihon materiallaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Bu — davlat siyosati darajasida raqamli va assistiv texnologiyalar mavzusining dolzarbligini tasdiqlovchi muhim dalildir.

Shunga qaramay, mavjud me'yoriy-huquqiy baza asosan texnik ta'minot va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, sun'iy intellekt asosidagi assistiv vositalarning ta'lim jarayoniga pedagogik jihatdan integratsiya qilinishi masalasi hali ochiq qolmoqda. Mahalliy pedagogika fanida N.Z. Abidova, P.M. Pulatova kabi olimlarning ishlarida maxsus ta'lim va tiflopedagogika nazariy jihatdan yoritilgan bo'lsa-da, raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarining bu sohaga tatbiqi alohida tadqiqot predmeti sifatida deyarli o'rganilmagan.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida assistiv sun'iy intellekt vositalarining qo'llanilishida jiddiy amaliy cheklov mavjud: mavjud vositalarning aksariyati o'zbek va rus tilidagi matnlarni ishonchli tanib olish va tabiiy ovozga aylantirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat, o'quv adabiyotlarining katta qismi aynan shu tillarda nashr etilishini hisobga olganda, talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Demak, xorijiy tajribada samarali natija bergan yechimlarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki ularni mahalliy til va o'quv kontentiga moslashtirish O'zbekiston uchun ustuvor ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan talabalar ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanish borasida kuchli me'yoriy-huquqiy asos shakllangan, biroq uni pedagogik amaliyotga, xususan mahalliy tilga moslashtirilgan yechimlar orqali tatbiq etish masalasi keyingi ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son Qonuni. – www.lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. – www.lex.uz.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-avgustdagi PQ-292-son Qarori. – www.lex.uz.

4. Abidova N.Z. Maxsus psixologiya (Tiflopsixologiya). – T.: Baraka fayz media, 2017.

5. Pulatova P.M. Maxsus pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2014.